UO‘K 81

NUTQIY AKT NAZARIYASI ASOSIDA HAJVIY MATNLARNING PRAGMATIK TAHLILI

Usmonov Aslam Qarshiboyevich,
A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hajviy matnlarda nutqiy aktlarning pragmatik xususiyatlari J.Ostin, J.Searl, J.Mey, J.Yul kabi xorijiy hamda Sh.Safarov, M.Hakimov, D.Xudoyberganova kabi o‘zbek tilshunoslarining nazariy qarashlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutqiy akt nazariyasining uch bosqichli tuzilishi (lokutiv, illokutiv, perlokutiv aktlar) hamda J.Searlning illokutiv aktlar tasnifi (reprezentativ, direktiv, komissiv, ekspressiv, deklarativ) o‘zbek hajviy matnlari – latifa va hangomalar misolida yoritiladi. Muallif komik effektning yuzaga kelishini nutqiy aktning shakli bilan haqiqiy kommunikativ maqsadi o‘rtasidagi nomuvofiqlik, bilvosita nutqiy aktlarning qo‘llanilishi hamda nutqiy muvaffaqiyat shartlarining ataylab buzilishi bilan bog‘laydi. Shuningdek, milliy-madaniy nutqiy odob me’yorlarining hajviy kontekstda kinoyaviy qayta talqin etilishi masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Maqola pragmalingvistika va lingvokulturologiya sohalarida olib borilayotgan tadqiqotlar uchun nazariy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *nutqiy akt, pragmatika, illokutiv akt, lokutiv akt, perlokutiv akt, hajviy matn, komik effekt, bilvosita nutqiy akt, muvaffaqiyat sharti, performativ, konstativ, reprezentativ, direktiv, milliy-madaniy xoslik, kesatiq.*

ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЮМОРИСТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ НА ОСНОВЕ ТЕОРИИ РЕЧЕВЫХ АКТОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются прагматические особенности речевых актов в юмористических текстах на основе теоретических взглядов зарубежных лингвистов – Дж.Остина, Дж.Серля, Дж.Мея, Дж.Юла, а также узбекских исследователей – Ш.Сафарова, М.Хакимова, Д.Худайберганова. В исследовании освещается трёхуровневая структура теории речевых актов (локутивный, иллокутивный, перлокутивный акты), а также классификация иллокутивных актов Дж.Серля (репрезентативы, директивы, комиссивы, экспрессивы, декларативы) на примере узбекских юмористических текстов – анекдотов и шуток. Автор связывает возникновение комического эффекта с несоответствием между формой речевого акта и его подлинной коммуникативной целью, использованием косвенных речевых актов, а также намеренным нарушением условий успешности речевого акта. Особое внимание уделяется ироническому переосмыслению норм национально-культурного речевого этикета в юмористическом контексте. Статья имеет теоретико-практическое значение для исследований в области прагмалингвистики и лингвокультурологии.*

Ключевые слова: *речевой акт, прагматика, иллокутивный акт, локутивный акт, перлокутивный акт, юмористический текст, комический эффект, косвенный речевой акт, условие успешности, перформатив, констатив, репрезентатив, директив, национально-культурная специфика, ирония.*

A PRAGMATIC ANALYSIS OF HUMOROUS TEXTS BASED ON SPEECH ACT THEORY

Abstract. *This article examines the pragmatic features of speech acts in humorous texts, drawing on the theoretical views of foreign linguists – J. Austin, J. Searle, J. Mey, G. Yule– as well as Uzbek scholars – Sh. Safarov, M. Hakimov and D. Khudayberganova,. The study covers the three-level structure of speech act theory (locutionary, illocutionary, and perlocutionary acts) and Searle's classification of illocutionary acts (representatives, directives, commissives, expressives, declaratives), illustrated through Uzbek humorous texts – anecdotes and jokes. The author attributes the emergence of comic effect to the mismatch between the form of a speech act and its actual communicative intent, the use of indirect speech acts, and the deliberate violation of felicity conditions. Particular attention is paid to the ironic reinterpretation of national-cultural*

speech etiquette norms within a humorous context. The article holds theoretical and practical significance for research in pragmalinguistics and linguoculturology.

Key words: *speech act, pragmatics, illocutionary act, locutionary act, perlocutionary act, humorous text, comic effect, indirect speech act, felicity condition, performative, constative, representative, directive, national-cultural specificity, irony.*

Kirish. Bugungi tilshunoslikda matn muammosi eng muhim tadqiqot obyektlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, matnning semantik, pragmatik va stilistik xususiyatlarini o‘rganish zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Matn nafaqat til birliklarining oddiy yig‘indisi, balki muayyan maqsad, munosabat va kommunikativ yaxlitlikni ifodalovchi murakkab nutqiy hodisadir. Shu jihatdan matnni lingvistik birlik sifatida talqin etish, uning tarkibiy va pragmatik xususiyatlarini aniqlash ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Zamonaviy pragmatikaning markaziy tushunchalaridan biri nutqiy akt nazariyasidir. Ushbu nazariyaga J.Ostin asos solgan bo‘lib, uning fikricha, so‘z aytish shunchaki biror fikrni bayon qilish emas, balki muayyan harakatni bajarishdir ("*gapirish bu harakat qilishdir*") [1-C.24]. J.Ostin nutqiy aktda uch qatlamni ajratadi: *lokutiv* akt, *illokutiv* akt (gap orqali ifodalanuvchi maqsad buyruq, iltimos, vada va h.k.) hamda *perlokutiv* akt (gapning tinglovchiga ko‘rsatgan ta'siri). Bu nazariya keyinchalik J.Searl tomonidan rivojlantirildi va tizimlashtirildi [2-P.140].

O‘zbek tilshunosligida nutqiy aktlar nazariyasi Sh.Safarov [3-B.98] tomonidan pragmalingvistika doirasida asoslandi va maxsus monografik tadqiqot obyektiga aylantirildi. Hajviy matnda nutqiy aktlarning o‘ziga xos qo‘llanishi kulgi hosil qilishning muhim mexanizmi hisoblanadi, chunki komik effekt ko‘pincha nutqiy aktning shakli bilan uning haqiqiy maqsadi o‘rtasidagi nomuvofiqlikdan tug‘iladi.

Masalan: Xotin eriga dedi:

– Jonginam, sizningcha men ideal ayolmanmi?

– Sen undan ham ortiqsan.

– **Qanchalik ortiqman?**

– – **50 kilogramm…** (Siz kim bo‘lasiz? Latifalar, hangomalar. Sharq, Toshkent -2008)

Keltirilgan matnda lokutiv akt qiyosiy daraja orqali ifodalangan tasdiq gap orqali yuzaga chiqmoqda. Illokutiv akt assertiv-ekspressiv akt – maqtov turkumiga kiradi. Bu javob birinchi shakli pragmatik talabini to‘liq qanoatlantiradi va muvaffaqiyatli birlashgan javob sifatida idrok etiladi. Ya'ni "ortiq" so‘zi polisemantik imkoniyatga ega bo‘lib – u birinchidan, "sifat jihatidan yuqori, a'lo" ma'nosida qo‘llanmoqda, biroq matnda yashirin holda ikkinchi "miqdoriy ortiqlik/ortiqcha vazn" ma'nosi ham tushinilmoqda. Bu yuqorida aytilganidek asosiy maqsad bilan komik effektni yuzaga chirqaruvchi nutqiy aktning nomufofiqligidir.

Tadqiqot metodologiyasi. J.Searl illokutiv aktlarni maqsadiga ko‘ra besh asosiy turga ajratadi: **reprezentativlar** biror narsani tasdiqlash, xabar berish; **direktivlar** tinglovchini biror harakatga undash (buyruq, iltimos, savol); **komissivlar** so‘zlovchini biror ishga majbur qilish (va'da, qasam); **ekspressivlar** so‘zlovchining ruhiy holatini ifodalash (minnatdorchilik, uzr, tabrik, tanbeh); **deklarativlar** aytish orqali voqelikni o‘zgartirish (nom qo‘yish, e'lon qilish) [4-P.148]. Ushbu tasnifni va uning hajviy matndagi qo‘llanishini quyidagi jadvalda ko‘rsatamiz:

1-jadval. Nutqiy aktlar tasnifi va ularning hajviy matndagi qo‘llanishi

Nutqiy akt turi	Vazifasi	Hajviy matndagi qo‘llanishi
Reprezentativ	Voqelikni tasdiqlash, xabar berish	**Mubolag‘ali "xabar" orqali kulgi*:*** *–Bobomning bo‘yi shu qadar uzun bo‘lganki osmonga etgan.* *–Shu boshiga nimadir tegib turganmi?* *–Ha.* *O‘sha mening bobomni etagi bo‘lgan. (Handalak h.k.)*
Direktiv	Undash, buyruq, iltimos, savol	**Bajarib bo‘lmaydigan buyruq:** *Birinchi kompyuter darsi.* *Ustoz shogirdiga ilk saboq bermoqda.* *–Bir ko‘zing bilan kompyuter klaviaturasi qara, bir ko‘zing bilan kompyuter monitoriga qara.* *–Ustoz, qaray olmayapman.* *–Bor shuni o‘rganib kel.*

Nutqiy akt turi	Vazifasi	Hajviy matndagi qo‘llanishi
Komissiv	Va’da, majburiyat olish	**Amalga oshmaydigan va’da***:* *– Qarzingni qachon berasan?* *– Beraman, Albatta, beraman.* *– Qachon?* *– 30-fevralda…*
Ekspressiv	His-tuyg‘uni ifodalash	**Kesatiqli “maqtov”:** *– Voy, opaginang o‘rgulsin! Voy, quloqlaringning qimirlashiga o‘zginam girgitton bo‘lay! Uni qarang, oyimchaxon, quloqlari biram chiroyli qimirlaydiki...* ***Voy, eshakjonga jonginamni qoqay!***
Deklarativ	Aytish orqali holatni o‘zgartirish	**Kulgili “sifat”, “unvon” berish**: *– Ustoz, ababiy baxtning siri nimada?* *– Ahmoqlar bilan tortishmaslikda.* *– Lekin bu notog‘ri.* ***– Gaping tog‘ri.***

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tilshunos Sh.Safarov o‘zbek tilidagi nutqiy aktlarni tadqiq qilar ekan, milliy nutqiy odob doirasida ularning o‘ziga xos ifodalanish shakllarini ko‘rsatib beradi. Hajviy matnda esa mana shu nutqiy aktlarning me’yoriy shakli ataylab buziladi yoki kutilmagan mazmun bilan to‘ldiriladi, natijada kulgi hosil bo‘ladi.

Sudya guvoh ayoldan so‘radi:

– Xo‘sh oilaviy ahvolingiz qanday? Ayol **chuqur xo‘rsindi.**

– Tushunarli, demak, turmushga chiqmagansiz…

Sudya guvoh erkakdan so‘radi:

– Sizning oilaviy ahvolingiz qanday? Erkak ham **chuqur xo‘rsindi.**

– Tushunarli, – dedi sudya, – demak, uylangansiz… (Siz kim bo‘lasiz? Latifalar, hangomalar. Sharq, Toshkent -2008)

Hajviy matnda kulgi hosil qilishning eng samarali vositalaridan biri *bilvosita nutqiy aktlar*dir. J.Searl ta’riflaganidek, bilvosita nutqiy aktda bir illokutiv akt ikkinchi bir illokutiv akt orqali amalga oshiriladi, ya’ni gapning tashqi shakli bilan uning haqiqiy maqsadi mos kelmaydi. J.Yul ham bu hodisani nutqiy aktlar nazariyasining muhim jihati sifatida ta’kidlaydi [5-P.55]. Masalan, quyidagi dialogda savol shaklidagi gap aslida tanbeh ma’nosini ifodalaydi:

Ona: – Soat nechada uyga kelding?

O‘g‘il: – Hozirgina, oyi.

Ona: – Quyosh chiqib bo‘ldi-ku, “hozir”ing shumi?

Bu o‘rinda onaning savoli aslida javob so‘rash emas, balki tanbeh berish maqsadini ifodalaydi. Aynan shakl va maqsad o‘rtasidagi nomuvofiqlik, hamda o‘g‘ilning “hozir” so‘zini so‘zma-so‘z tushunishi kulgi uyg‘otadi.

Masalan, – Ichasizmi?

– Bu savolmi yoki taklif?

– Savol.

– “Savol” bo‘lsa yo‘q dedi. (Boshini chayqatib) Taklif bo‘lsa “Alkomir” da (Aroq sotish va ichish joyi) gaplashaylik.

Ya’na, Shifokor qabulida:

– Shifokor bemordan so‘radi: Ichasizmi?

– Bemor. Mayli.

Nouhoum Kone “BMT shartnomalaridagi nutq harakatlari: pragmatik nuqtayi nazar” maqolasining “Nutq to‘g‘risidagi qonun” qismida gapning illokutsion harakatini aniqlash haqida quyidagilarni bayon etadi: “J.L.Ostindan oldin, tavsif tushunchasi til falsafasida markaziy o‘rinni egallagan va gaplar odatda tasvirlash uchun xizmat qiladi degan umumiy tushunchaga ega edi. Ostinning ta'kidlashicha, biz so‘zlarni aytgandan so‘ng, nafaqat vaziyatni tasvirlaymiz, balki bir turdagi harakatni ham bajaramiz va til ishlatilganda bajariladigan harakat turlariga kelsak, dastlab konstativ va ijro etuvchi o‘rtasida farq bor edi. Birinchisi tavsiflovchi sifatida tavsiflangan jumlalarni anglatadi, ya'ni ular narsalarni tasvirlaydi yoki ifodalaydi va

shuning uchun haqiqatga qarab baholanadigan (rost yoki yolg‘on) jumlalar, ikkinchisi esa tasvirlash o‘rniga harakatlarni bajaradigan va shuning uchun haqiqatga qarab baholanmaydigan, balki baxtga qarab baholanadigan (baxtli yoki baxtsiz) gaplar turlarini anglatadi. Odamlar muloqot qilishga urinishda nafaqat grammatik tuzilmalar va so‘zlarni o‘z ichiga olgan gaplarni yaratadilar, balki ular aslida shu gaplar orqali harakatlarni amalga oshiradilar degan keng tarqalgan fikr paydo bo‘ldi [6], bu esa “tavsiflovchi illyuziya”ning yo‘q bo‘lib ketishi bilan nutq harakatlarini zamonaviy o‘rganishning gullab-yashnashiga olib keldi.

Muhokama. Ostinning qiziqarli monografiyasidan boshlab, nutq harakati deganda dastlab ijro etuvchi gaplar orqali amalga oshiriladigan harakatlar nazarda tutilgan. Masalan, “Endi men sizlarni er va xotin deb e'lon qilaman” shunga o‘xshash. Ular shunchaki biror narsani aytish yoki tasvirlashdan ko‘ra, biror narsa qilish uchun mo‘ljallanganga o‘xshaydi. Ostin bunday jumlalarni birinchi shaxs egasi, indikativ kayfiyat, oddiy hozirgi zamon, faol ovoz va ijro etuvchi fe'l kabi xususiyatlarga ega ijro etuvchi gaplar deb atagan, u “Men har kuni maktabga boraman” kabi tavsiflovchi jumlalardan farqli o‘laroq, shunchaki faktni bayon qilish. Bu ta’rif endi qat’iy ijro etuvchi bo‘lmagan va turli fanlarga qo‘llaniladigan gaplar tomonidan bajariladigan harakatlarni qamrab olish uchun kengaytirildi”.

Ifodaning bayon qilish vakolati preformativlikning birinchi belgisi sifatida muhim qimmatga ega bo‘ladi. Har qanday diskurs ishtirokchilari o‘ziga berilgan imkoniyatlar yordamida munosabatga kirishadi. Uning nutqdagi hokimlik darajasi o‘sha vaziyatning o‘zidagi xatti-harakatda ham sezila boshlaydi. Bunday ifodalar performativlar hisoblanadi. Harakat ifodasida sotsial, kommunikativ vaziyat to‘la ma’noda o‘z bayoniga ega bo‘ladi, so‘zlovchi va tinglovchi faoliyati ham o‘sha vaziyat bilan bog‘lanadi.

Ta’kidlaganidek, performativlar (amalda bajaruvchi gaplar) va konstativlar (tasdiqlovchi gaplar) o‘rtasidagi farq ko‘pincha qonun bo‘yicha ishlarda, adabiy tanqidda, siyosiy tahlilda va boshqa sohalarda qo‘llaniladi, ammo Ostinning ta'kidlashicha, bu farq oxir-oqibat himoya qilinmaydi. Aslida, har bir oddiy gapning ham tavsiflovchi, ham samarali jihati bor: biror narsa aytish ham biror narsa qilish demakdir. Biroq bu konstativ-performativ dixotomiya uzoq davom etmadi, o‘z chegarasini ko‘rsatdi va uch qismli yondashuv: lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar paydo bo‘ldi. Bular til qo‘llanilganda bajariladigan harakatlar turlari bo‘lib, performativ yoki konstativ bo‘lishidan qat'i nazar, ko‘pgina gaplarning xususiyatlarini qamrab oladi.

Ostin bu turdagi harakatlar o‘rtasidagi farqni quyidagicha ifodalaydigan “Uni otib tashlang!” misoli bilan ko‘rsatadi:

(A)-part yoki ifoda: U menga “Otib tashlang!” dedi, ya’ni otib tashlash “oting” va u “u”ga ishora qilib.

(B) harakati yoki illokatsiya: U meni uni otishga undadi (yoki maslahat berdi, buyurdi va hokazo).

(C) parda yoki Perlokutsiya: U meni uni otishga ko‘ndirdi.

Bu misol aniq bir tafsilotga asos bo‘lib xizmat qiladi, bu erda lokutsiya talaffuz qilish harakati, illokutsiya niyat va perlokutsiya ta'sirdir. Kengroq ma'noda, lokutsiya sintaksis leksika, fonologiya orqali ifodalangan so‘zma-so‘z ma’nodir; ma'lum tovushlarni talaffuz qilish yoki ma'lum belgilar qo‘yish, ma'lum so‘zlardan foydalanish va boshqalar orqali nutqni qurish. Soddalashtirilgan nuqtayi nazardan tashqariga chiqish uchun illokutsiya ma'ruzachining niyatiga ishora qiladi; u gapirish orqali amalga oshiriladigan narsani tarjima qiladi va nutqchiga emas, balki tinglovchiga ko‘proq aloqador, chunki u o‘z ahamiyatini xulosadan oladi. Uchinchi toifa, perlokutsiya, gapirishning yoki sodda qilib aytganda, qabul qiluvchining fikrlari, his-tuyg‘ulari yoki harakatlariga ta’sirining natijasi, qo‘shimcha mahsulotidir.

J.Mey ta’kidlaganidek, nutqiy akt muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun muayyan “muvaffaqiyat shartlari” bajarilishi lozim [7– P.120]. Hajviy matnda kulgi ko‘pincha aynan mana shu shartlarning ataylab buzilishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, va’da aktining muvaffaqiyat sharti so‘zlovchining va’dani bajarishga qodirligi va niyatidir. Bu shart buzilganda, ya’ni so‘zlovchi bajara olmaydigan narsani va’da qilganda, kulgili holat paydo bo‘ladi:

– *Oyijon, kiyovingizni “gah” desa qo‘limga qo‘nadigan qilib oldim.*

– *Ehtiyot bo‘l, qizim, hozir bahor, ering “pir” etib uchib ketmasin.*

Bu yerda “qattiq itoatkorlik” ma’nosi noaniq va amalda to‘la bajarilmasligi anglashiladi. Kulgi ana shu “me’yoridan ortiq itoatkorlik”ning oqibati yaxshi emasligidan tug‘iladi.

M.Hakimov o‘zbek diskursidagi nutqiy aktlarni tahlil qilar ekan, ularning milliy-madaniy xoslikka ega ekanini ta’kidlaydi[8–Б.84]. O‘zbek nutqiy odobida iltimos, tanbeh, maqtov kabi aktlar ko‘pincha bilvosita, yumshatilgan shaklda ifodalanadi, hajviy matnda esa aynan mana shu yumshoq shakllar kesatiq quroliga aylanadi. D.Xudoyberganova ham matnning to‘liq pragmatik mazmuni milliy-madaniy kontekstda anglashilishini qayd etadi [8–Б.58]. Masalan, o‘zbek tilidagi *“Rahmat, ko‘p yashang!”* iborasi odatda samimiy minnatdorchilik bo‘lsa-da, hajviy kontekstda kinoyaviy tanbeh ma’nosida qo‘llanishi mumkin.

M.Yo‘ldoshev badiiy matndagi nutqiy aktlarning pragmatik tahlili personaj nutqining individualligini va muallif munosabatini ochib berishini ta’kidlaydi. Hajviy asarda personajlarning nutqiy aktlari ularning xarakterini kulgili tarzda ochib beradi.

Nutqiy aktlar nazariyasi hajviy matnning pragmatik mohiyatini ochib berishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Hajviy matnda kulgi hosil qilishning asosiy nutqiy-aktual mexanizmlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: bilvosita nutqiy aktlardan foydalanish, muvaffaqiyat shartlarining ataylab buzilishi, hamda nutqiy aktning me’yoriy mazmunini kutilmagan mazmun bilan almashtirish. M.Hakimov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, hajviy matndagi nutqiy aktlarni tahlil qilish kulgi mexanizmini pragmatik jihatdan asoslash imkonini beradi. Sh.Safarov qayd etganidek, aynan nutqiy akt darajasida matnning kommunikativ maqsadi bilan lisoniy shakli o‘rtasidagi munosabat eng aniq namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Hajviy matn muayyan kommunikativ maqsad bilan yaratilgan nutqiy faoliyat mahsuli bo‘lib, uni to‘liq tushunish uchun pragmatik yondashuv zarur. Hajviy matnning pragmatik modeli adresant, adresat, hajviy xabar, illokutiv maqsad, kontekst va perlokutiv effect kabi o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topadi. Sh.Safarov ta’kidlaganidek, pragmatika til birliklarining muloqot jarayonidagi qo‘llanishi va ular orqali erishiladigan ta’sirni o‘rganadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Остин Дж. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVII. – Москва: Прогресс, 2001. – С. 24.*
2. *Searle J. R. Consciousness and Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – P. 140.*
3. *Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 98.*
4. *Searle J. R. Consciousness and Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – P. 148.*
5. *https://www.scirp.org/journal/paperinformation?paperid=104642, Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – P. 55., (Austin, 1955; Searle, 1979; Yule, 2000)*
6. *Mey J. L. Pragmatics: An Introduction. 2nd ed. – Oxford: Blackwell Publishing, 2001. – P. 120.*
7. *Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 84.*
8. *Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 58.*